



DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CIVIC COMPETENCIES IN FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Soliyev Ilkhomjon Sobirovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate
Professor, Fergana State University

Aripova Sevarakhon Ibrokhimjon qizi

1st-year Master's Student, Fergana State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17596138>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Social competence, personal
competence, pedagogical
education, professional
development, innovative
educational technologies,
humanitarian education,
communicative competence,
personal development,
anthropocentric approach,
axiological approach.

ABSTRACT

This study analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of social and personal competencies of teachers, problems in the pedagogical education system, and modern approaches. The results of the study show that although social and personal competencies have gained importance in modern pedagogical education, existing educational processes are mainly focused on the formation of narrow professional skills.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-АКТИВНЫХ ГРАЖДАНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Солиев Илхомжон Собирович

Ферганский государственный университет, доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам, доцент

Арипова Севарахон Иброхимжон кизи

Магистрант 1-го курса Ферганского государственного университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17596138>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Социальная
компетентность,
личностная
компетентность,
педагогическое образование,
профессиональное развитие,
инновационные

ABSTRACT

В настоящем исследовании анализируются теоретико-методологические основы развития социально-личностных компетенций педагогов, проблемы в системе педагогического образования и современные подходы. Результаты исследования показывают, что, несмотря на повышение значимости социально-личностных компетенций в современном педагогическом образовании, существующие образовательные процессы в



образовательные
технологии, гуманитарное
образование,
коммуникативная
компетентность,
личностное
антропоцентрический
подход, аксиологический
подход.

основном ориентированы на формирование
узких профессиональных навыков.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGLARIDA IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Soliyev Ilxomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Aripova Sevaraxon Ibrohimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17596138>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Ijtimoiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, pedagogik ta'lim, kasbiy innovatsion ta'lim texnologiyalari, gumanitar ta'lim, kommunikativ qobiliyat, shaxsiy rivojlanish, antropotsentrik yondashuv, aksiologik yondashuv.

ABSTRACT

Mazkur tadqiqotda o'qituvchilarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik ta'lim tizimidagi muammolar hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik ta'limda ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, mavjud o'quv jarayonlari asosan tor kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkamol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Ta'limni kompetensiyaga asoslangan yondashuv yo'nalishi bo'yicha modernizatsiya qilish jamiyatdagi ta'lim sohasidagi vaziyatga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar - jamiyatning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'xtalar ekan: "mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit - qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda." O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlar agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshchiligidagi yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu Forumda davlatimiz rahbari yana bir bor Yoshlar huquqlari



to'g'risidagi Birlashgan Millatlar tashkiloti Konvensiyasini qabul qilinishi bo'yicha bildirilgan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga ta'lim-tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. "Islohot – bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi"[2, 252-b]. Chunki, har qanday islohot zamirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g'oyalarini qo'llab quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun, ijtimoiy fol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarda adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o'rin tutishi bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro bo'lib faollashuvi muhim o'rin tutadi. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun mohiyati to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq yondashuvlar, turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ta'limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol ISHTIROKCHI SIFATIDA TALQIN QILINISHIDIR. 2023-yil 2-iyun faoliyatga, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga intilish bo'lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan. O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr mulohazalarni ta'kidlab o'tish imkonini berdi: - yosh avlodni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi –ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish; - talabalarga demokratik davlat qurish g'oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta'minlash; - talabalarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g'oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta'minlash; - talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish; - talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi "Mentorlik", "Talaba minbari" kabi ijtimoiy loyihalarda faollik ko'rsatish orqali oshirib borish; - talabalarni oliy ta'lim muassasalaridagi, "Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish" orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari:

- Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida;
- Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasining o'rganilganlik holati;
- Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari;

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda



uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan (qarang Pedagogika)

Bolalarda ijtimoiy kompetensiya shakllanishning boshlang'ich darajasini aniqlash turli xil texnikalardan foydalangan holda amalga oshiriladi: bolaning o'zini o'zi qadrlashi, shaxsning ijtimoiylashuvini o'rganish usullari, hissiyotlarni aniqlash, sotsiometriya usullari, bolalar jamoasidagi psixologik munosabatlar va undagi har bir bola mavqeini aniqlash. Mualliflik ertagidan ertak terapiyasi usuli sifatida foydalaniladigan darslar: bolalarning faolligi va mustaqilligini sezilarli darajada oshirishga; xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish, yuqoriga ko'tarish; bilimni oshirishga faol qiziqish, faol pozitsiyani rivojlantirishga qobiliyat; muloqotning kommunikativ tomoni bilan bog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilash; belgilangan o'z-o'zini anglashning o'sishi va ijobiy tomon o'zgarishlar o'sishi, "rad etilgan" va "qabul qilinmagan" toifasidagi bolalarda o'z-o'zini hurmat qilishi; vaziyatli muammolarni hal qilish usullarini tanlashga imkon beradi. Mualliflik ertagidan foydalanish psixologik muhitning yaxshilanishiga, olalarning holati tenglashuviga xizmat qiladi va munosabatlarni mustahkamlash uchun doimiy moyillik kuzatildi. Ijtimoiy kompetensiyalar shakllanishi sezilarli darajada oshadi: bolalar bir-birlariga ko'proq e'tibor berishadi, tez-tez yordam berishni boshlaydilar, turli muammolarni hal qilishda, munosabatlarda bag'rikenglik kuzatiladi, haqoratli so'zlar va iboralar kundalik hayotni tark eta boshlaydi.

References:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti.
2. Ijtimoiy Tojiboyeva G.R., Pulatova D.T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804, 209-215
3. faol <http://www.genderi.org/tasdiqlandi.html?page=65>
4. fuqarolik O'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini dars va darsdan tashqari ma'naviy va ma'rifiy ishlar jarayonida rivojlantirish <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/view/2945>